

G`aniyeva Barchinoy Mahmud qizi

Namamgam Davlat universiteti

Mustaqil izlanuvchi

ganiyeva1011@gmail.com

ORCID iD: 0009-0000-9392-4787

**“KITABU BULG`ATIL MUSHTAQ FI LUG`AT AT-TURK VAL
QIFCHAQ” YOZMA OBIDASI. FE`LLAR BOBI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola XIV asrga oid "Kitabu bulg'atil mushtaq fi lug'at at-turk val qifchaq" qo'lyozmasining "Fe'llar bobi" bo'limini ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada, asosan, turkiy xalqlar madaniy merosi bo'lgan ushbu qo'lyozmaning tarkibi, mazmuni va "Fe'llar bobi" qismi batafsil o'rganilgan. Qo'lyozma qipchoq-turkiy tilni o'rganuvchilar uchun lug'at sifatida tuzilgan bo'lib, unda arabcha fe'llar va ularning qipchoq-turkiy tildagi tarjimalari alifbo tartibida, zamon va shaxs-son, buyruq mayli, harakat nomi(masdar)va bo'lishsizlik shakllarida berilishi batafsil yoritilgan. Bu shakllar bugungi tilimizda ham saqlanib qolganligi qipchoq-turkiy va o'zbek tillarining tarixiy grammatik bog'liqligini namoyon etadi. Tadqiqotda qo'lyozmaning ayrim kamchiliklari, masalan, ayrim sahifalar yo'qolganligiga oid muammolar ham yoritilgan. Ushbu maqola "Bulg'atil mushtaq" qo'lyozmasining lingvistik va madaniy ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.*

***Kalit so`zlar:** fe'llar, kipchak-turkiy, o'tgan zamon, grammatik shakllar, masdar, buyruq mayli, qipchoq, shaxs-son, harakat nomi, arab alifbosi.*

Ганиева Барчиной Махмудовна

**Независимый исследователь Наманганского государственного
университета**

**"КИТАБУ БУЛГАТИЛ МУШТАК ФИ ЛУГАТ АТ-ТУРК ВАЛ
КИФЧАК" – ПИСЬМЕННЫЙ ПАМЯТНИК ТЮРКСКИХ НАРОДОВ.
РАЗДЕЛ "ГЛАГОЛЫ"**

Аннотация. Данная статья посвящена научному анализу раздела «Глаголы» в рукописи XIV века «Kitabu bulg'atil mushtaq fi lug'at at-turk val qifchaq». В статье подробно исследованы состав, содержание и раздел «Глаголы» этой рукописи, являющейся культурным наследием тюркских народов. Рукопись была составлена как словарь для изучающих кипчакско-тюркский язык. В ней представлены арабские глаголы и их переводы на кипчакско-тюркский язык в алфавитном порядке, с описанием времён, лица и числа, повелительного наклонения, форм действия (масдар) и отрицательных форм. Указанные грамматические формы сохранились и в современном узбекском языке, что демонстрирует историческую грамматическую связь между кипчакско-тюркским и узбекским языками. В исследовании также рассматриваются некоторые недостатки рукописи, такие как утрата отдельных страниц. Данная статья способствует более глубокому пониманию лингвистической и культурной значимости рукописи «Bulg'atil mushtaq».

Ключевые слова: глаголы, кипчакско-тюркский, прошедшее время, грамматические формы, масдар, повелительное наклонение, кыпчак, лицо и число, деепричастие, арабский алфавит.

Ganiyeva Barchinoy

Independent researcher at Namangan State University

"KITABU BULGATIL MUSHTAQ FI LUGAT AT-TURK VAL QIFCHAQ" IS A WRITTEN MONUMENT OF TURKIC PEOPLES.

THE SECTION OF VERBS

Annotation. *This article is dedicated to the scientific analysis of the "Verbs" section in the 14th-century manuscript "Kitabu bulg'atil mushtaq fi lug'at at-turk val qifchaq". The article provides a detailed study of the structure, content, and the "Verbs" section of this manuscript, which is a cultural heritage of Turkic peoples. The manuscript was compiled as a dictionary for learners of Kipchak-Turkic language. It includes Arabic verbs and their translations into Kipchak-Turkic in alphabetical order, along with detailed explanations of tense, person, number, imperative mood, verbal nouns (masdar), and negative forms. These grammatical forms are preserved in modern Uzbek, illustrating the historical grammatical connection between Kipchak-Turkic and Uzbek languages. The study also highlights certain shortcomings of the manuscript, such as the loss of some pages. This article contributes to a deeper understanding of the linguistic and cultural significance of the "Bulg'atil mushtaq" manuscript.*

Key words: verbs, kipchak-turkic, past tense, grammatical forms, masdar, imperative mood, kipchak, person and quantity, gerund, Arabic alphabet.

Kirish. Turkiy xalqlar tillari va adabiyotini ilmiy ravishda o'rganish an'anasining vujudga kelishi o'rta asrlarga borib taqaladi. Bu an'ananing qaror topishida klassik arab filologiyasi bo'yicha tahsil ko'rgan filolog olimlarning ilmiy faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lgan.¹ Ayniqsa, XI – XIV asrlar turkiy xalqlar hayotida asosan, ilm- fan va madaniyat yuksak darajada rivojlanganligi bilan ahamiyatlidir. O'sha davrlarda ilm-fan tili sifatida turkiy til bilan bir qatorda arab tiliga ham e'tibor kuchli bo'lgan. Xususan, o'sha davrda yozilgan turkiy xalqlar

¹ Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври. Т., "Янги аср авлоди" 2005, 6-7 бетлар.

yozma yodgorliklari asosan arab yozuvida boʻlgan, ilmiy asarlarda ham turkiy va arab tili grammatikasi boʻyicha qoidalar berilganligi koʻplab manbalarni tadqiq qilish jarayonida koʻzga tashlanadi. Ana shunday yozma manbalardan biri XIV asr yozma yodgorligi boʻlgan “Kitabu bulgʻatil mushtaq fi lugʻat at-turk val qifjaq”²(keyingi oʻrinlarda “Bulgʻatil mushtaq”) qoʻlyozmasi boʻlib, bu qoʻlyozma Imom Jamoliddin at-Turki tomonidan qipchoq tilini oʻrganuvchilar uchun lugʻat sifatida tuzilgan. “Bulgʻatil mushtaq” qoʻlyozmasi asosan ikki qismdan iborat boʻlib, ular feʼldan boshqa soʻz turkumlari(Ismlar)³ hamda feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlarni ichiga olgan.

Adabiyotlar tahlili: “Bulgʻatil mushtaq” qoʻlyozmasini ilk bor polyak turkologi A.Zayonchkovskiy tomonidan oʻrganilib, 1938-yilda uning I tomi nashrdan chiqqan va 1939-yilda Varshava universitetidagi yongʻin natijasida I tom deyarli toʻliq yonib ketgan.⁴ 1954-yilda esa ushbu qoʻlyozmaning II tomi, yaʼni “Feʼllar bobi” qismi nashr etilgan⁵, 1958-yilda esa uning birinchi qismi qayta nashr etiladi⁶. Shuningdek, G. Gaynutdinova⁷, Sh. Fayzullayeva⁸, Gulhan at-Turk⁹ kabi olimlarning bu boradagi tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ushbu tadqiqot ishida esa “Bulgʻatil mushtaq” qoʻlyozmasini chuqurroq tahlil qilib, uning ikkinchi qismi boʻlmish “Feʼllar bobi” boʻlimining umumiy koʻrinishi va tarkibiy qismlarini oʻrganishga urgʻu beriladi.

² <https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/btv1b10082257s/f1.item>

³ Gʻaniyeva B. M., Jafarov B.S. “Kitabu BulgʻAtil Mushtaq fi lugʻat at -turk val qipchoq” qoʻlyozmasi – turkiy xalqlar yozma obidasi. NamDU ilmiy axborotnomasi 12-son, 2024, s.424-428.

⁴ Fayzullaeva, Sh. A. 1969. *Issledovanie yazika pamyatnika XIV v. “Kitabu bulgʻat al-mushtaq fi lugʻat at —turk va-l qifchaq” Djamalad — Dina at-Turki: avtoref. kand. filol. nauk (PhD diss.). Tashkent.6-b.*

⁵ ZAJĄCZKOWSKI, Ananiz, *Zajączkowski, Ananias, Vocabulaire Arabe-Kiptchak de l’époque de l’Etat Mamelouk, Bulağt al-Muştaq fi lguat at-Turk wa’l Qıfçaq, II Le Verba, Warszawa 1954.*

⁶ ZAJĄCZKOWSKI, Ananiz, *Vocabulaire Arabe-Kipchak de l’époque de l’Etat Mamelouk, Bulğat al Muştaq fi luğat at-Turk wa’l-Qıfçaq, II- ére partie Le nom, Warszawa, 1958.*

⁷ Gaynutdinova, Gulnara Rashatovna, *Istoriko-lingvisticheskiy analiz turkotatarskogo pismennogo pamyatnika XIV veka jamal al-Dina at-Turki “Kitabu bulat al- Muştak fi Lugat at-Turk va-l-Kifçak”, Kazan, 2005.*

⁸ Fayzullaeva, Sh. A. 1969. *Issledovanie yazika pamyatnika XIV v. “Kitabu bulgʻat al-mushtaq fi lugʻat at —turk va-l qifchaq” Djamalad — Dina at-Turki: avtoref. kand. filol. nauk (PhD diss.). Tashkent.*

⁹ Al- Turk Gulhan, *Kitābu bulğatu’l-muştaş fi luğati’t-türk we’l-kıfçāk üzerine dil incelemesi, Gazi Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara – 2012.*

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola XIV asrga oid “Kitabu Bulgʻatil Mushtaq fi Lugʻat at-Turk val Qifchaq” qoʻlyozmasining “Feʻllar bobi” boʻlimini ilmiy tahlil qilishda turli metodologik yondashuvlardan foydalangan. Qoʻlyozmadagi turkiy va arab tillarining grammatik oʻxshashliklari, feʻl tuslanishi tizimi va zamonaviy oʻzbek tiliga taʼsiri tahlil qilindi. Feʻllarning alifbo tartibida keltirilishi, shaxs-son, zamon va boʻlishlilik shakllari tizimli ravishda oʻrganildi. Qoʻlyozmadagi yoʻqolgan sahifalar va nomutasib joylar aniqlanib, taxminiy tiklash usullari muhokama qilindi. Turkiy tildagi feʻllarning zamonaviy oʻzbek tilidagi shakllari bilan qiyoslanishi orqali lingvistik bogʻliqlik ochib berildi. Qoʻlyozmaning tarixiy va madaniy ahamiyati, uning yaratilish sabablari oʻrganildi. Mazkur metodologiya orqali qoʻlyozmadagi lingvistik tizimning izchilligi, turkiy tillar rivojlanishidagi oʻrni va bugungi kunga taʼsiri chuqurroq yoritildi. Bu tadqiqot lingvistik va madaniy tadqiqotlar uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar. “Bulgʻatil mushtaq” qoʻlyozmasidagi “Feʻllar bobi” (21a betdan 89a betgacha) – 67 ikki tomonlama “a” va “b” sahifalarni egallagan boʻlib , jaʼmi 135(soʻnggi bir tomonlama sahifa bilan) betni tashkil etadi . Qoʻlyozmadagi Feʻllar bobi “Baʼb ul-Afʻal” oʻz navbatida kichik boblarga va fasllarga boʻlingan va har bir kichik bob arab alifbosi tartibidagi arab harflari nomi bilan atalgan va shu harf bilan boshlanuvchi arabcha feʻllar va ularning qipchoqcha tarjimai berilgan. Quyida qoʻlyozmaning “Feʻllar bobi” qismidagi boblar va ularning tarkibidagi qipchoq tilidagi feʻllar keltirilgan:

1. Alif (l) harfi bobi (21a – 37a): *oldi21a, berdi21b, yedirdi22a, yedi22a, satun oldi22b, yoturdi 22b, oyandi 23a, oyandurur23a, yandurdi 23b, sondurdi23b, soʻndi24a, turgʻurdi24a, azarladi24b, bitti24b, tutti24b, eleshti25a, duknaladi25a, utandi25b, koʻrdi 25b, yugurti26a, doʻqundi26a, ish berdi 26b, yari ayladi 26b, chiqardi27a, qoʻbti27a, uvladi27a, boyidi27a, oʻl oʻldi 27b, joʻlandi27b, tez keldi27b, uvdi27b, yazdi28a, koʻsterdi28a, qizdurdi28a, sizdurdi28b, qaynatti28b, yomonladi29a, halok*

etti29a, yiqti29a, kechti29a, qaturdi29b, o`ldi29b, ilashturdi30a, yuvundi30a, durushti30b, yiydi30b, azad etti31a, uvdadi31b, baqirdi31b, sindi32a, satashdi32a, yoluqti32a, bulushti32b, qarishti32b, surtundi32b, yirtildi32b, qopti32b, bangladi33a, kuyundi33a, shoshildi33b, shishti33b, ochildi33b, yondi33b, soyuldi33b, kelitti33b, kesildi34a, qoqdi34a, kundi34a – 68ta fe`l;

2. Ba (ب) harfiga oid so`zlar berilgan, sarlavha qo`yilmagan (34b-37a): *o`pmaniz34b, tukurdi34b, yashadi34b, siydi34b, yutti35a, sotti35a, tukti35b, tashildi35b, o`l etti35b, o`l ayladi 35b, tokardi35b, sochti35b, yatti36a, ushudi36b, qoldi36b – 15ta fe`l;*
3. Ta (ت) harfi bobi (37a – 43b): *tamasha etti 37a, o`grandi37a, so`yladi, so`zladi37b, urdi37b, ko`rundi38a, osildi38b, tebrandi38b, naz etti39a, yalin o`ldi39a, baqti39b, chinqirdi39b, savuldi40a, tukeldi40b, burch o`ldi40b, keresliq etti40b, sachradi41a, yalvardi41a, tuskurdi41b, qusti41b, ingirdi42a, eglandi42a, kelendi42b, uvlandi43a, sichiti43a – 24ta fe`l;*
4. Xo (خ) harfiga oid so`zlar berilgan, sarlavha qo`yilmagan(43b-45a): *yirtgil43b, chiqti43b, tikti43b, qopti44a, savash etti 44a, ziyon etti44b, top etti44b, muhurladi45a;*
5. Ro (ر) harfiga oid so`zlar berilgan, sarlavha qo`yilmagan(45b/1.1-45b/2.3): *buyurdiniz45b, yamladi45b, kiravu qo`ydi45b – 3ta fe`l;*
6. Za (ز) harfi bobi (45b/2.4 – 47b): *artti45b, arturdi45b, ziyarat qildi46a, uvlandurdi46a, tashti46b, utrukladi46b, tumaladi, dukmaladi46b, tayindi47a, kilitladi47a – 9ta fe`l;*
7. Sin (س) harfi bobi (47b– 49b): *tiqti47b, ishitti48a, safar etti48a, ketti48a, ko`chti48a, so`ydi48b, dinso`zdurdi48b, tek turdi48b, uzdi49a, ug`urladi49a, salam edarbiz49b, ismarladi49b – 12ta fe`l ;*
8. Shin (ش) harfi bobi (50a – 53b): *yiladi50a, to`ydi50a, do`nuq oldi, do`nuqlik verdi50b shukr etti50b, tilandi51a, qarishladi51a, so`kdi51b, yirtti51b, shishladi52a, so`kuldi52a, qishladi52b, kishanladi52b, qochti53a, yo`lsiz bordi53a – 14ta fe`l;*

9. Sod (ص) harfi bilan boshlanuvchi soʻzlar berilgan, sarlavha qoʻyilmagan (53b– 56a/5.3): *aya qasgʻil53b, kirchak etti53b, kuydi53b, yoyladi54a, ayigʻlandi54a, ovladi53b, kiyikladi53b, urdi53b, boʻyunladi55a, kishnadi55b, chagʻirdi55b, koʻrushti55b, boʻyadi56a, ogʻdi56a, chiqti56a, yaradi56a* – 16ta feʻl;
10. Dod (ض) harfi bobi (56b – 57b): *vurdi56b, tosh berdi56b, yavqilunur56b, boyundan oldi57a, kuldi57a* – 5ta feʻl;
11. To (ط) harfi bilan boshlanuvchi soʻzlar berilgan, sarlavha qoʻyilmagan (57b – 60b/2.3): *diladi57b, sanchti57b, pishurdi58a, bukti58a, sachratti58b, qamladi58b, uzatti58b, tegirtti58b, oʻkutti58b, balchiqladi59a, koʻmdi59b, tamaʻ etti59b, boʻshadi60a, xosh oʻldi60a, uchti60b* – 15ta feʻl ;
12. Zo (ظ) harfi bobi (60b/2.4 – 61a): *urundi, zulm etti60b, aqsadi60b* – 2ta feʻl ;
13. Ayn (ع) harfi bobi (61a – 65a): *bildi61a, saydi61b, tiridi61b, eklandurdi62a, koʻr oʻldi, qorgʻu (oʻldi)62a, quchti62b, ayladi62b, suvsadi62a, kechti63a, ishladi63b, isirdi63b, qoʻlladi64a, aqsurdi64a, baqsatti64a, chaynadi64a, yoʻgʻurdi64b, derladi64b* – 17ta feʻl;
14. Gʻayn (غ) harfi bobi (65a – 68a): *yopti, qapi yopti, etmek yopti, bagʻladi, kilitladi65a, qisgʻandi65b, botti65b, qoqti66a, yirladi66a, dekshirdi, ibraqti66b, yuvdi66b, qiz oldi67a, duzatti67a, qaynadi67a, yondi67b, utti67b, utturdi67b, yangʻiladi67b, ichxurdi68a, oʻrtti68a* – 16ta feʻl;
15. Fa (ف) harfi bobi (68a – 71b): *ochti68b, soʻkti68b, sevindi69a, sevindurdi69a, istadi69a, toʻshadi69b, ayirdi69b, toʻkindi, qaridi 70a, bitladi70a, burdi70b, bichti, bichindi71a, ayrildi71a, angʻladi71a* – 13ta feʻl;
16. Qof (ق) harfi bobi (71b – 76b): *aytti71b, durdi71b, oʻlturdi72a, oʻqutti72b, kesti72b, chemuldi73a, qovurdi73a, qoʻpordi73b, yozuqladi73b, yandurdi74a, axturdi74a, qutuldi74a, ozdirdi74b, yomonladi74b, duzatti75a, buqagʻladi75b, oʻldurdi, depeledi75b, biturdi76a, qaligʻdi76a, ulashti76b* – 20ta feʻl;

- 17.Kaf (ك) harfi bobi (76b – 79a): *yozdi, chizdi76b, yalanso`yledi77a, so`ndurdi77b, o`ldi77b, dag`ladi77b, yetti78a, qaridi78a, bo`ldurdi78a, chizlashti78b, ichishti78b, assi ayladi78b, supurdi79a – 12ta fe`l ;*
- 18.Lom (ل) harfi bobi (79a – 81a): *kiydi79a, bo`ldi79b, yumruqladi79b, kiydurdi79b, tikti80a, ko`rundi80a, yapishti80a, sordi80a, sorandi80b, yaladi80b – 10ta fe`l;*
- 19.Mim (م) harfi bobi (81a – 83a): *to`ldurdi81a, to`lu oldi81a, sumkurdi81a, o`ldi81b, siladi81b, tuzlatti82a, yirdi82a, uyurladi82b, sayruv oldi83a, so`kel oldi83a – 10ta fe`l;*
- 20.Nun (ن) harfi bobi (83a – 86a):*indi83, qo`ndi83b, silkitti83b, sikti84a, alsildi84a, artti84b, unutti84b, qurutti85a, nur qildi85a, suqtadi85b, pishti85b, buzdi85b, qig`irdi, chag`irdi 85b, muzad etti85b, uyuqladi85b, urdi86a, pishman o`ldi86a – 17ta fe`l;*
- 21.Ha (ه) harfi bobi (86.a – 87.a): *dushti86b, yuturdi86b, esti86b, keskiladi86b, quyuldi86b, qachurdi87a – 6ta fe`l;*
- 22.Vov (و) harfi bobi (87.a – 89.a): *bahishladi87a, kir etti87b, sig`di88a, dartti88a, uzatti88a, ko`ndurdi88a, shishti88b, kirdi88b, yetti88b, dekdi88b, topti89a, do`g`urdi89a, ilitti89a – 13ta fe`l.*

“Bulg`atil mushtaq” qo`lyozmasida muallif yuqorida berilgan fe`llarning har birining ko`pi bilan 17ta shaklini bergan. Bunda fe`llarning zamoni, mayl, shaxs-soni, bo`lishli bo`lishsizlik shakllarida tuslanishini berib, ularni izchil tartibda keltiradi . Fe`llarning birinchisi har bir o`rinda o`tgan zamon, III shaxs, birlik shaklida kelgan bo`lib, bu haqida muallif “Fe`llar bobi”ning boshida ta`kidlab o`tgan: “Fe`llarning birinchisi o`tgan zamondadir” (21.a). Lug`atlarda arab tilidagi fe`llar infinitiv shaklda emas balki, III shaxs, birlik, o`tgan zamon shaklida keladi va shunga ko`ra qo`lyozma arab tili qoidalariga mos tuzilgan.

“Bulg`atil mushtaq“ qo`lyozmasida berilgan fe`llar tartibini “so`zlamog” (تحدّث) 37.b fe`li misolida quyida ko`rishimiz mumkin:

	Arabcha	Qipchoq-turkiy	O`qilishi	O`zbekcha	
1.	تَحَدَّثَ	سزَلَدِي وَ سِيلَدِي اَيْضاً	<i>So`zladi<sup>10</sup> va so`yladi aydan</i>	<i>So`zladi va so`yladi ham</i>	37b2.5
2.	يَتَحَدَّثُ	سُيَلَرُ	<i>So`ylar</i>	<i>So`zlar</i>	37b2.6
3.	الْحَدِيثُ	سُيَلَمَكْ	<i>So`ylamak</i>	<i>So`zlamog</i>	37b3.1
4.	تَحَدَّثْتُ	سُيَلِّدُمْ	<i>So`yladim</i>	<i>So`zladim</i>	37b3.2
5.	اتَحَدَّثْتُ	سُيَلَرَمَنْ	<i>So`ylarman</i>	<i>So`zlarman</i>	37b3.3
6.	تَتَحَدَّثُ	سُيَلَرَبِزْ	<i>So`ylarbiz</i>	<i>So`zlarimiz</i>	37b3.4
7.	تَحَدَّثْنَا	سُيَلَدِكْ	<i>So`yladik</i>	<i>So`zladik</i>	37b3.5
8.	تَحَدَّثْتَ	سُيَلْدَنْ	<i>So`yladin</i>	<i>So`zlading</i>	37b3.6
9.	تَتَحَدَّثُ	سِيلَرَسَنْ	<i>So`ylarsan</i>	<i>So`zlarsan</i>	37b4.1
10	تَحَدَّثُونَ	سِيلَرَسِزْ	<i>So`ylarsiz</i>	<i>So`zlarsiz</i>	37b4.2
.					
11	تَحَدَّثْتُمْ	سُيَلْدَنْزْ	<i>So`yladiniz</i>	<i>So`zladingiz</i>	37b4.3
.					
12	تَحَدَّثُوا	سِيلَدِلَرُ	<i>So`yladilar</i>	<i>So`zladilar</i>	37b4.4
.					
13	يَتَحَدَّثُونَ	سُيَلَرَلَرُ	<i>So`ylarlar</i>	<i>So`zlarlar</i>	37b4.5
.					
14	تَحَدَّثَ	سُيَلَكِلْ	<i>So`ylakil</i>	<i>So`zlagin</i>	37b4.6
.					
15	لَا تَحَدَّثُ	سُيَلَمَكِلْ	<i>So`ylamakil</i>	<i>So`zlamagin</i>	37b5.1

¹⁰ Qipchoq tildagi so`zlarning o`qilishi keyingi o`rinlarda ham *k* ko`rinishida berildi.

.

16	تَحَدَّثُوا	سُيْلِنِز	So`ylaniz	So`zlangiz	37b5.2
----	-------------	-----------	-----------	------------	--------

.

17	لَا تَتَحَدَّثُوا	سُيْلَمَنِز	So`ylamaniz	So`zlamangiz	37b5.3
----	-------------------	-------------	-------------	--------------	--------

.

Bu jadvaldagi fe'llarning qanday grammatik ma'no ifodalayotganiga e'tibor qaratsak: So`zladi va so`yladi – o'tgan zamon, birlik, III shaxs (-di); so`zlar – kelasi zamon (sifatdosh emas), birlik, III shaxs (-ar); So`zlamoq – harakat nomi shakli, masdar (-moq, ayrim o`rinlarda –mak); So`zladim – o'tgan zamon , I shaxs, birlik(-dim); So`zlarman – kelasi zamon, I shaxs, birlik(-(a)rman); So`zlarimiz – kelasi zamon I shaxs , ko`plik (-(a)rmiz); So`zladik – o'tgan zamon, III shaxs , ko`plik(-dik); So`zlading – o'tgan zamon II shaxs birlik(-ding); So`zlarsan – kelasi zamon, II shaxs , birlik (-(a)rsan); So`zlarsiz – kelasi zamon II shaxs , ko`plik(-(a)rsiz); So`zladingiz – o'tgan zamon II shaxs ko`plik(-dingiz); So`zladilar – o'tgan zamon, III shaxs, ko`plik (-dilar); So`zlarlar – kelasi zamon, III shaxs ko`plik(-(a)rlar); So`zlagin – buyruq mayli, birlik(-gin); So`zlamagin – buyruq mayli, birlik , bo`lishsizlik(-magin); So`zlangiz – buyruq mayli, ko`plik(-ngiz); So`zlamangiz – buyruq mayli , ko`plik, bo`lishsizlik(-mangiz).

Fe'llarning bunday tuslanishi tartibi qo`lyozmadagi barcha qipchoqcha fe'llar uchun umumiy bo`lib , ayrim shakllar mavjud bo`lmaganda ham tartib o`zgarmagan. “Bulg`atil mushtaq “ qo`lyozmasining “Fe'llar bobi” qismida berilgan qipchoq- turkiy tildagi fe'llarning barchasi uchun yuqoridagi shakl yasovchi qo`shimchalar tartibi amal qiladi va bu tartib so`nggi sahifaga qadar o`zgarishsiz kelgan. Qiziqarli tomoni shundaki, qipchoq- turkiy tilda berilgan fe'llardagi grammatik shakllarning barchasi bugungi kunda ko`plab turkiy tillar xususan, o`zbek tilida ham aynan bir shakl va mazmunda qo`llaniladi.

Yuqorida berilgan jadvaldagi soʻzlarning arab tilidagi tarjimasi “تَحَدَّثَ” – “tahaddasa” feʼli, V bob feʼli (“tafaʼala” qolipida) hisoblanib uning qoʻlyozmada tuslanishi quyidagicha qolipga mos keladi: 1)“tafaʼala”; 2)”yatafaʼalu”; 3)”al-faʼiylu”; 4) “tafaʼiltu” 5)”atafaʼalu”6) “natafaʼalu”; 7) “tafaʼalna.”; 8) “tafaʼilta”; 9)”tatafaʼilu”; 10)”tafaʼalu:na”; 11) “tafaʼaltum”; 12) “tafaʼalu.”; 13)”yatafaʼalu:na” 14)”tafaʼilu”; 15)” la: tatafaʼil”; 16)”tafaʼalu.”; 17)” la: tatafaʼalu.”. Ushbu qoliplar qoʻlyozmada kelgan barcha arabcha feʼllarning tuslanishiga asos boʻla oladi, muallif bu tartibni hech bir oʻrinda buzilmasligiga eʼtibor qaratgan.

“Bulgʻatil mushtaq” qoʻlyozmasida tartib buzilmasligi uchun muallif “b” sahifada berilishi kerak boʻlgan arab tilidagi soʻzni “a” sahifaning ostida ham kichik koʻrinishda tartiblovchi sifatida yozgan. Bu tartib buzilgan oʻrinlar ham mavjud boʻlib, bu koʻp holatlarda sahifa yoʻqolganligi bilan bogʻliqdir. Jumladan, qoʻlyozmaning “Feʼllar bobi”dagi 34a va 34b, 43a va 43b, 45a va 45b, 49a va 49b, 53a va 53b, 57a va 57b betlar orasida umumiy 6ta oʻrinda sahifa yoʻqolganligini taxmin qilish mumkin.

Arab alifbosida 28ta harf mavjud boʻlsa, qoʻlyozmaning “Feʼllar bobi”da arab harflaridan 17tasi nomi bilan ataluvchi boblar mavjud boʻlib, jaʼmi 21ta harf bilan boshlanuvchi feʼllar berilgan. Qoʻlyozmada berilgan sarlavhasi yoʻq feʼllarga, aslida muallif tomonidan sarlavha qoʻyilgan boʻlishi mumkin. “tSa(ث)”, “Jim(ج)”, “Ha(ح)”, “Yo(ي)”, “Dal(د)”, “Zal(ذ)” harflari bilan boshlanuvchi feʼllar esa qoʻlyozmada umuman mavjud emas.

Jumladan, 34a sahifa soʻngida kelgan tartiblovchi soʻz “يَعْتَاظُونَ” oʻrniga b sahifada “لَا تَبُوسُوا” – oʻpmaniz feʼli berilgan. Ushbu feʼl va undan keyin 37a sahifagacha kelgan barcha feʼllar “b(ب)” harfi bilan boshlangan, qoʻlyozmada esa bunday feʼl bobi sarlavhasi mavjud emas. 34 a va b sahifalar oʻrtasida sahifa yoʻqolganligini va oʻsha sahifada “Ba(ب)”harfi bobi borligini taxmin qilishimiz mumkin.

“Ta(ت)” harfi bobi (37a – 43b)dan so`ng, ya`ni 43b sahifadan 45a sahifa so`ngigacha “Xo(خ)” harfi bilan boshlanuvchi fe`llar berilib, bobning sarlavhasi berilmagan. Bunda xattot adashgan bo`lishi ehtimoldan yiroqdir. Birinchidan, 43a sahifa so`ngida kelgan tartiblovchi so`z - لَا تَغَوِّطْ o`rniga 43b sahifa boshida – يَرْثِكِل - *yirtkil* – “yirtgin” so`zi berilgan. Qolaversa, qo`lyozmada har bir o`rinda fe`llarning birinchisi o`tgan zamon, III shaxs birlik shaklida kelganini hisobga olsak, bu o`rinda so`z buyruq maylidagi fe`l bilan boshlanishi mantiqqa zid. Shunday qilib, bu o`rinda sahifa yo`qolganligi ma`lum bo`ladi.

45a sahifadagi tartiblovchi so`z لَا تَخْتِمُوا - “Muhrlamangiz” o`rniga 45b sahifada رَسَمْتُمْ - “Rasm chizdingiz” so`zi kelgan. Bunda “Xo(خ)” harfiga oid so`z o`rniga “Ro(ر)” harfiga oid so`z kelgan, ammo unga ham sarlavha qo`yilmagan, bu esa sahifa yo`qolganligidan darak beradi.

49a va 49b sahifalarda ham tartiblovchi so`z – يُسْرِق va keyingi sahifadagi نُسَلِّم so`zlari ham nomutanosib bo`lsada, bu o`rinda ular bir xil harf bilan (Sin (س) harfi) boshlangan, ya`ni ular bitta bobga oid. Shunday ekan bu o`rinda yo sahifa yo`qolgan yoki xattot adashganini taxmin qilish mumkin.

53a va 53b sahifalarda ham yuqoridagi holatni uchratamiz. 53 تَسْأَلُونَ tartiblovchisi va 53 صَفَّقْ b/1.1 so`zlaridan bilishimiz mumkinki, ularning o`rtasida sahifa yo`qolgan va o`sha sahifada “Sod(ص)” harfi bobi sarlavhasi berilgan bo`lishi ehtimoldan holi emas.

57a sahifa so`ngidagi tartiblovchi so`z – صَجِّكْتُمْ va 57b sahifada birinchi so`z – طَلَّب - Tiladi, so`radi so`zlari ham bir biriga mos emas, bu yerda ham sahifa yo`qolgan va “to(ط)” harfi bobi sarlavhasi tushib qolgan.

Xulosa. Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, “Kitabu Bulg`atil Mushtaq fi lug`at at-turk val qifjaq” qo`lyozmasining “Fe`llar bobi” bo`limi turkiy xalqlarning madaniy va lingvistik merosida muhim o`rin egallaydi. Maqolada Kipchak-turkiy til va arab tilidagi fe`llarning qo`lyozmada qo`llanilishi o`rganilib, ulardan turkiy tildagi grammatik shakllarning zamonaviy o`zbek tilida saqlanib qolganligi

aniqlandi. Tadqiqot natijasida qo'lyozmadagi grammatik shakllarning zamonaviy o'zbek tili bilan uzviy bog'liqligi isbotlandi. Qipchoq-turkiy tildagi fe'l tuzilmalarining bugungi kunda ham qo'llanilishi lingvistik tarixiy bog'liqlikni ko'rsatadi. Qolaversa, qo'lyozmaning ayrim qismlarining yo'qolganligi bo'yicha mulohazalar yuritildi. Mazkur tadqiqot ishi "Bulg'atil Mushtaq" qo'lyozmasini o'rganish bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi va turkiy tillarning tarixiy rivojlanishini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври. Т., "Янги аср авлоди" 2005.
2. Al- Turk Gulhan, Kitābu bulḡatu'l-muṣṭāk fi luḡati't-türk we'l-kifçāk üzerine dil incelemesi, Gazi Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara – 2012.
3. Fayzullaeva, Sh. A. 1969. Issledovanie yazika pamyatnika XIV v. "Kitabu bulg'at al-mushtaq fi lug'at at —turk va-l qifchaq" Djamalad — Dina at-Turki: diss. kand. filol. nauk (PhD diss.). Tashkent.
4. Gaynutdinova, Gulnara Rashatovna, İstoriko-lingvisticheskij analiz turkotatarskogo pismennogo pamyatnika XIV veka jamal al-Dina at-Turki "Kitabu bulat al- Muṣṭak fi Lugat at-Turk va-l-Kifçak", Kazan, 2005.
5. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1980. Toshkent: O'qituvchi.
6. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi : o'quv qo'llanma / X.Dadaboyev, Z.Xolmanova - Toshkent: Tafakkur Bo'stoni,2015.
7. ZAJĄCZKOWSKI, Ananiz, Vocabulaire Arabe-Kıpçak de l'époque de l'Etat Mamelouk, Bulḡat al Muṣṭaq fi luḡat at-Turk wa'l-Qıfçaq, II- ére partie Le nom, Warszawa, 1958.
8. ZAJĄCZKOWSKI, Ananiz, Zajączkowski, Ananias, Vocabulaire Arabe-Kıptchak de l'époque de l'Etat Mamelouk, Bulāḡt al-Muṣṭaq fi lḡuat at-Turk wa'l Qıfçaq, II Le Verba, Warszawa 1954.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. I-II. 1981. Moskva: Russkiy yazik.

10. G`aniyeva B. M., Jafarov B.S. “Kitabu Bulg`Atil Mushtaq fi lug`at at - turk val qipchoq” qo`lyozmasi – turkiy xalqlar yozma obidasi. NamDU ilmiy axborotnomasi 12-son, 2024.

11. <https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/btv1b10082257s/f1.item>

12. <https://www.laneslexicon.com/>